

YANGI O‘ZBEKISTON SHAROITIDA YOSHLAR MAFKURAVIY ONGINI
YUKSALTIRISHNING ILMIY-FALSAFIY ASOSLARI**Yusupaliyev Orzumurod Odilovich***Guliston davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi*orzumurodyusupaliyev@gmail.com*Tel: +998 95 814 0807*<https://orcid.org/0009-0003-0446-7652>

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Yangi O‘zbekiston sharoitida yoshlar mafkuraviy ongini yuksaltirishning ilmiy-falsafiy asoslari tahlil etilgan. Unda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishda yoshlarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasi, milliy qadriyatlar, oila instituti hamda halollik tushunchasining o‘rni va ahamiyati yoritib berilgan. Shuningdek, davlat va millat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik, zamonaviy islohotlar jarayonida yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish masalalari falsafiy nuqtayi nazardan asoslangan. Maqolada yoshlar tarbiyasida dunyoviy va diniy qadriyatlar uyg‘unligini ta’minlash zarurligi ham alohida ta’kidlangan.*

Kalit so‘zlar: *Yangi O‘zbekiston, yoshlar mafkurasi, Uchinchi Renessans, ma’naviy tarbiya, milliy qadriyatlar, oila, halollik, davlat va millat, ijtimoiy taraqqiyot, mafkuraviy ong*

Аннотация: *В данной статье анализируются научно-философские основы повышения идеологического сознания молодежи в условиях Нового Узбекистана. Особое внимание уделяется роли духовно-нравственного воспитания, национальных ценностей, института семьи и принципа честности в формировании фундамента Третьего Ренессанса. Также рассматриваются вопросы взаимосвязи государства и нации, а также повышения социальной активности молодежи в условиях современных реформ. Подчеркивается необходимость гармоничного сочетания светских и религиозных ценностей в процессе воспитания молодежи.*

Ключевые слова: *Новый Узбекистан, молодежь, идеологическое сознание, Третий Ренессанс, духовное воспитание, национальные ценности, семья, честность, государство и нация, социальное развитие*

Abstract: *This article analyzes the scientific and philosophical foundations for enhancing the ideological consciousness of youth in the context of New Uzbekistan. It highlights the importance of spiritual and moral education, national values, the institution of the family, and the concept of honesty in building the foundation of the Third Renaissance. The interrelation between the state and the nation, as well as increasing youth social activity in the context of ongoing reforms, are also discussed from a philosophical perspective. The*

article emphasizes the importance of harmonizing secular and religious values in the upbringing of young people.

Keywords: *New Uzbekistan, youth ideology, Third Renaissance, spiritual education, national values, family, honesty, state and nation, social development, ideological consciousness*

Donishmand xalqimiz har ikki Renessans davrida jahonning eng ilg‘or, taraqqiy etgan xalqlari qatorida bo‘lgani barchamizga ulkan kuch bag‘ishlaydi. Bu esa bugungi kun urf-odat va qadriyatlar xalqimiz va yosh avlod oldida Uchinchi Renessans poydevorini qurishda katta ma‘suliyat yuklaydi. Yurtimizda yoshlarning intellektual va ijodiy salohiyatini mustahkamlash, ularning mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorligini oshirish borasida ulkan ishlar olib borilmoqda. Zero, zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega, mamlakatning munosib kelajagi uchun javobgarlikni o‘z zimmasiga ola biladigan barkamol, maqsadga intiluvchan va serg‘ayrat yoshlarni tarbiyalash bugunning eng muhim vazifalaridan biridir. Ma‘lumki, Prezidentimiz ijtimoiy, ma‘naviy-ma‘rifiy sohalardagi ishlarni yangi tizim asosida yo‘lga qo‘yish bo‘yicha 5 ta muhim tashabbusni ilgari surib, yoshlarga e‘tiborni kuchaytirish, yosh avlodni madaniyat, san‘at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularda axborot texnologiyalaridan to‘g‘ri foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish, yoshlar o‘rtasida kitobxonlikni targ‘ib qilish, xotin-qizlar bandligini ta‘minlash masalalari davlat siyosati darajasida e‘tiborga olindi.

Yangi O‘zbekistonda Uchinchi Renessans poydevorini qurishda Xojagon-Naqshbandiya ta‘limotidagi urf-odat va qadriyatlarlik g‘oyalarining asosi bo‘lgan oilalarda urf-odat va qadriyatlarlik muhiti va halolik ruhida tarbiyalash masalalariga maxsus e‘tibor berish lozim. Davlatning qudrati, tayanch manbai bo‘lgan oila tarixiy kategoriya hisoblanib, uning xususiyatlari moddiy va ma‘naviy jarayonlar bilan xarakterlanadi. Unga ta‘riflar quyidagicha: Oila-jamiyatning kichik xujayrasi-jamiyat tarkibining muhim qismi bo‘lib hisoblanadi. U kishilarning tabiiy-biologik, huquqiy, ma‘naviy munosabatlariga asoslangan ijtimoiy etnik birlikdir[1,230-b.] Doimo oila yoshlar tarbiyasidagi asosiy bo‘g‘in hisoblanib kelingan. Oila yoshlarni axloq-odobli, rostgo‘y, mehnatsevar, halol bo‘lib voyaga yetishi uchun zamin tayyorlaydi. O‘zbekiston Respublikasi o‘z mustaqilligiga erishgach, oilaga bo‘lgan e‘tibor davlat siyosati darajasiga ko‘tarilib, yanada kuchaydi. Bugun mamlakatimizda har bir oilaning mustahkamligi, tinchligi, farovonligi, sog‘lomligi, oila a‘zolarining o‘zaro hurmat va ahilligini ta‘minlash masalasi-davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Insonga juda ko‘plab beg‘ubor go‘zal xislat va fazilatlar berilgan. Ana shu ne‘matlarning eng ulug‘i – bu halolik tuyg‘usi. Ne‘mat - bu albatta moddiy boyliklarning o‘zidagina iborat emas, hayot ne‘mati, jismdagi ichki va tashqi a‘zolarining bir maromda ishlashi, ya‘ni ko‘zning ko‘rishi, qulog‘ning

eshitishi, tilning ta’min bilishi, yurakning urib turishi, bularning barchasi albatta bebahone’ mat bo’lib, bizlarni shukr qilishga undaydi. Halolik, tinchlik, hotirjamlik bir maromdagi maqbul hayot tarzi hamdir. Shuningdek halolik barqaror taraqqiyot poydevori hamdir. Halolik milliy ma’naviyatimizning uzviy jihatidir. Halolik tinchlik va barqarorlik mahsuli hisoblanadi. Halolik tarbiyasi ikki yo’nalishda amalga oshirib kelingan. Bu yo’nalishlardan birinchisi-davlat siyosatiga fuqarolar tomonidan namoyon etiluvchi e’tirof, turmushdan rozilikni ifoda etuvchi ijtimoiy munosabatlar tushunilsa, ikkinchisi odamlarning diniy e’tiqodini va ilohiy qudratga aqlan va qalban anglab sig’iniluvchi munosabat sifatida yuzaga chiqadi. Tarbiya orqali halolikni inson xarakterining belgisiga, fazilatiga aylantiruvchi harakat barcha davrlarning dolzarb masalasi bo’lib kelgan. Aholi turli qatlamlari orasida xususan yoshlar o’rtasida bugungi kungi hayotdan rozilik, halolikni tarbiyalash dolzarb ijtimoiy vazifalardandir. Milliy ma’naviyatimizda halolik insonning tarbiyalanganlik darajasini ham namoyon etib kelgan. Odamlarga yaxshilik qilish, mehr ulashish halolik xususiyatining tarkibiy jihatlaridandir. Zero halolik – bu tobelik emas, bu istak mayllarni jilovlashdir. Uruhiy iroda, sabr-qanoat, oqibat va saboq, salohiyat, yuksak madaniyat ifodasidir. Halolik insonning fikr-mulohazasi va hayotiy falsafasi, o’zini bag’ishlash qudrati. Halolik ayni vaqtda e’tiqod, mas’uliyat, barqarorlik omili. Halolik tuyg’usi bilan yashagan inson tafakkurida vazminlik, qiyosiy tahlil, mushohada, taftish, xulosa kabi fazilatlar shakllanadi.

Umrдан mamnunlik yondashuvini tarkib toptirish va mustahkamlashda tadrijiylik, bosqichma-bosqichlik, bosiq intilish, oqilona me’yor, muvozanatga rioya qilish muhim rol o’ynaydi. Zero xalqimizda “Narvonga ham asta chiqiladi”, degan gap bor. Hech qachon unutmashimiz kerak, bu dunyoda hamma narsa asta-sekin, o’z yo’li bilan bo’ladi. Shuning uchun ham davlat siyosatiga yoshlar tomonidan beriluvchi e’tirof, turmushdan rozilikni ifoda etuvchi ijtimoiy munosabatlarida halolikning yuksalishi, barqarorlashuvida mustaqillikning 34 yilida erishgan yutuqlarimiz, islohotlarimizning tub mohiyati inson manfaatlariga qaratilganligini, eng muhimi ularni izchil, bosqichma-bosqich davom etayotganligini to’g’ri tushuntirish maqsadga muvofiqdir.

Yangi O‘zbekistonda avvalambor yoshlarni ta’lim va tarbiyasi eng dolzarb masala hisoblanadi. Tarbiya - avlodlararo ijtimoiy-tarixiy va hayotiy tajribani uzatishga xizmat qiluvchi, oila, ta’lim muassasalari, ijtimoiy, siyosiy va boshqa tashkilotlar, OAV va boshqalar ta’siri ostida jismonan sog’lom, ma’nan barkamol insonni shakllantiruvchi va takomillashtiruvchi uzluksiz jarayon hisoblanadi. Yuksak ma’naviyatni tarbiyalash vositasi hisoblangan, muayyan shaxs, jamoa, muayyan guruh, jamiyat, millatda jismoniy barkamollik, ruhiy, axloqiy, ma’naviy yetuklik kabi sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy ta’lim-tarbiya jarayonini ifodalovchi tushuncha bu- ma’naviy tarbiyadir. Har qanday ma’naviy tarbiya dunyoviy va diniy qadriyatlar uyg’unligida olib borilsa, bu jarayonda shaxsning

nafaqat bilimi ko‘payibgina qolmay, balki unda ma‘naviy-axloqiy sifatlarning qaror topishi ham tezlashadi. Albatta, bugungi kunda yoshlarni tarbiyalash jarayonida ularni dunyoviy va diniy qadriyatlardan uzluksiz boxabar qilib borish, bu qadriyatlarning inson, jamiyat taraqqiyotidagi mushtarak, garmonal o‘rni beqiyosligini anglab yetish o‘rinlidir.

Tarixiy nuqtayi nazardan ma‘lum bo‘lgan ijtimoiy taraqqiyot tajribasi, yon atrofimizda ro‘y berayotgan yangi jarayonlar ilmiy jamoatchilikning ma‘naviy-ruhiy omillarga nisbatan munosabatini keskin o‘zgartirdi. Bu muammo aslida hech qachon, hech bir joyda tafakkur sohiblarining e‘tiboridan chetda qolmagan. XX asr nemis faylasufi M.Xaydegger inson va millat ruhiyati xususida so‘z yuritarkan, “inson, individ odatda chuqur o‘yga tolib undagi ichki quvvat mavjlanishi asnolarida barcha narsa va hodisalarning mohiyatini anglab yetadi” [2,117-b.] degan xulosaga keladiki, bu millatga ham taalluqli.

Yuqorida keltirilgan umumiy holat faqat individ ruhiy holatining ko‘rinishi emas. Balki uni butun boshli millatga, hatto sivilizatsiyaga nisbatan ham qo‘llash joizdir.

Va shu asosda davlatning buguni va istiqbolini ta‘minlash uchun uning milliy asoslarini mustahkamlash yangi davrning bosh strategiyasiga aylandi. O‘zbek tiliga davlat tili maqomini berish, tamomila yangi davlat ramzlarining joriy etilishi, umumxalq bayramlarining qayta tiklanishini hukumat milliy an‘analari, asoslar bilan bog‘lashni dolzarb vazifaga aylantirdi.

O‘zbekiston rahbariyati tutgan aynan shu yo‘l, ya‘ni davlatning milliy asoslariga ustuvorlik berilishi bu o‘zbeklar ongi, tafakkurining o‘ziga xos tomoni bo‘lib, boshqa mamlakatlarda bu jihat boshqacha ko‘rinish berishi ham mumkin. Bu O‘zbekistonning tanlovi. Zero, barcha millatlar, konkret ijtimoiy vaziyat hamda jahon tajribasidan chiqqan holda, qaysi tomonga qaysi paytda strategik ustuvorlik berishni o‘zlari hal qiladi.

Tarixdan ma‘lumki, turli sabablarga ko‘ra o‘zbeklar an‘anasi, udumlari, ma‘naviy qadriyatlari har doim qiyinchiliklarga qaramasdan o‘zini, o‘zligini namoyish eta olgan. Boshqalar esa uyg‘unlik va o‘zlikni saqlashda tub xalq atrofida hamjihatlikning eng baland cho‘qqilariga chiqishgan. O‘zbeklar ongi, tafakkurida shakllangan davlatchilikni ular ham o‘zini deb qabul qilgan. Bu jihat yangi davrda Prezident Sh.Mirziyoyevga “ko‘zlagan barcha maqsad vazifalarimizga albatta yetamiz. Bu borada men avvalo ko‘p sinovlardan yorug‘ yuz bilan o‘tgan olijanob xalqimizning mustahkam irodasi va mustahkam salohiyatiga ishonaman” [3,78-b.] deya qat‘iy aytish imkoniyatini yaratdi.

Umuman olganda, millat va davlatdan qaysi biri oldin paydo bo‘lgan degan masalaga mutaxassislar allaqachon munosabat bildirib, muammoning ayrim qirralariga oydinlik kiritishgan bo‘lsa-da, baribir u hanuzgacha murakkabligicha qolmoqda. Buning sababi mazkur global muammo tarixning ko‘p bosqichlarida dolzarblik kasb qilib kelganligi bilan bog‘liq. Millat va davlat munosabatidagi uyg‘unlik, ya‘ni o‘zaro bog‘liqlik nuqtayi nazaridan kelib chiqilsa, biz uchun millat va davlat bir-birini to‘ldirgan va bir-birini o‘zaro vujudga

keltirganligi muhim. Shu munosabat bilan fransuz tarixchisi Ernest Renann “Ulkan hamjihatlik ifodasi sifatida millat qahramonona o‘tmish, bugungi yagona xohish-iroda va nihoyat, kelajakda esa umumiy harakat dasturini taqozo etadi” [4,43-b.] – degan e‘tiborga loyiq bir xulosani o‘rtaga tashlaydi.

Muhimlik shundaki, yuqorida zikr etilgan millatga xos jihatlarni davlatchilikda ham ko‘rishimiz mumkin. Bunday vaziyatda, tabiiyki, ularning qachon “dunyo yuzini ko‘rganligi” bilan bog‘liq masalalar chetga surilib, o‘rtadagi umumiylik va shu umumiylikni shakllantirgan asoslar bilan bog‘liq masalalar ustuvorlik kasb etadi.

Aslida davlat va millat ijtimoiy reallik hamda g‘oya sifatida biri birini boyitib, o‘zaro barhayotlik baxsh etib bordi. Davlatning ham, millatning ham ijtimoiy negizlari va turtkilari bir xil: har ikkalasi ham «ijtimoiy dastur» [5,451-b.] sifatida quyidan yuqoriga qarab rivojlanishdek tabiiy marom natijasidir. Davlatning pirovard maqsadi – ijtimoiy tartibot va hamjihatlikka erishishi o‘zining milliy asoslarini mustahkamlash bilan chambarchas bog‘liq. Millat, davlat va umuman insonning hayot maskani bilan bog‘liq muammolarning chuqur falsafiy tahlilini yaratgan alloma I.Kant shunday yozadi: «davlatlar bor kuchini o‘zining tor, birovlarini bo‘ysundirishga qaratilgan niyatlaridan xalos bo‘lishga qaratmas ekan, fuqarolarning tafakkur tarzini takomillashtirish haqida o‘ylamas ekan, u holda ularning o‘z xalqi xususida fikrida birorta bir ijobiy o‘zgarish borasida so‘z yuritish xom xayollikdan boshqa narsa emas. Bu xulosa shubhasiz millatga ham tegishli.

Demak, davlat bilan millat har biri alohida ijtimoiy reallik, hodisa bo‘lishi barobarida, pirovard maqsad va intilishlarining yo‘nalishida ulkan mushtaraklik mavjud. Davlatni davlat qiladigan millat, millatni ko‘kka ko‘taradigan, uning ichki salohiyatidan bashariyatni voqif qila oladigan kuch esa davlat.

Zero, jamiyat hayoti, undagi muttasil o‘zgarishlar vertikal hamda gorizontal, ya’ni keng ko‘lam kasb etishi, aniq “ijtimoiy dasturlar” ifodasi va ularning amalga oshishi mahsulidir. Dolzarb tarixiy asnolarda davlatga o‘z barhayot va bardavomligi yo‘lida ana shu o‘z-o‘zidan “shakllangan” ijtimoiy dasturiy maqsad va vazifalar orasidan strategik hayot-mamot ahamiyatiga ega bir nechtasiga ustuvorlik berish mas’uliyati yuklatiladi, davlat ushbu mas’uliyatni chuqur his etsa va uning uddasidan chiqishga bel bog‘lasa – shuning o‘zi yetarli. Barcha bosqichlarda borgan sari dolzarblik kasb etib turgan o‘zbek davlati, davlatchiligining milliy asoslarini mustahkamlashga qaratilgan strategik vazifani ham ana shu doirada qarash joiz. Shu munosabat bilan Prezident Sh.Mirziyoyev o‘zining bir chiqishida taraqqiyotning “o‘zbek modeli» bilan “zamonaviy davlat barpo etish”ni qo‘shaloq bir jarayon sifatida qaraganligi e‘tiborni tortadi [6,233-b.]

Umuman, davlat oldidagi dasturiy vazifalarning bari muhim. Ammo ma’lum bir vaqt kesimida ulardan biri yoki ikkitasining dolzarblik darajasi oshadi va bu esa, o‘z navbatida,

insoniyat umumiy boshdan kechirayotgan davr xarakteri bilan ham o‘lchanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning turli darajalardagi chiqishlari, intervyu hamda nutqlariga diqqatimizni qaratsak, uning davrga nisbatan “eski zamonning umri tugab, yangi zamon boshlanayotgan lahzalar”, “milliy tariximizning eng keskin va tahlikali davri”, “notinch zamon”, “notinch mintaqa”, “global moliyaviy inqiroz”, “xavfsizlik va barqarorlikka tahdidlar kuchayib borayotgan”, “turli mintaqalarda hamon davom etayotgan qurolli to‘qnashuvlar” singari konseptlarning ta’kidlanishi, Yangi O‘zbekiston davlati bugun o‘zini qay tarzda namoyon etmog‘i, davlat strategiyasini belgilashda davrdan chiqishning ma’no-mazmuni o‘z o‘zidan ayon bo‘ladi.

Mamlakat Prezidenti Sh.Mirziyoyev fikrlaridan yaqqol ko‘zga tashlanadigan uchta muhim jihat: davlatchilikni yangi qirralar bilan yanada boyitish, davlatimizning milliy asoslarini yanada mustahkamlash va nihoyat, tarixiy taraqqiyotning bugungi Uchinchi Renessans bosqichini bir biri bilan o‘zaro bog‘liqlikda ko‘rishning istiqbolimiz bilan chirmashib ketganligi, bu birdan bir yagona davr hukmi ekanligidir. Milliy tilimiz, milliy merosimiz, milliy modelimiz, milliy qonunchiligimiz, milliy davlatchiligimiz, milliy boshqaruv uslubimiz, milliy mentalitetimiz, milliy manfaatlarimiz tizimi, milliy ta’lim-tarbiya, milliy madaniyat va dunyoqarashimiz, milliy falsafamiz va boshqa ko‘plab milliy jihatlarimizning zamon ehtiyojlari bilan hamohangligi jahon hamjamiyati diqqat-e’tiboriga tushgan ekan, bu milliy strategik ustuvorligimizning ham bardavom va barhayotligining yaqqol guvohidir.

Adabiyotlar ro‘yxati:

Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2018.

1. Tulenov J. Dialektika nazariyasi. – T.: O‘zbekiston, 2001. 230 bet.

2. Xeydegger M. Osnovnye teoriya metafiziki // Voprosy filosofii. – 1989. – № 9. – S. 117.

3. Mirziyoyev Sh M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2018. – B. 78.

4. Fedotova G.P. O natsionalnom pokayani // Fedotov G.P. Sudba i grexi Rossii. V 2-x t. – Sankt Peterburg, 1991. – S. 43

5. Styopin V.S. Filosofskaya antropologiya i filosofiya kulturny. – M., 2015. – S. 451.

6. Mizziyoyev Sh. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak // Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2018. – B. 233.